ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2018-yil, 2-son (108) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Filologiya, Pedagogika, Psixologiya, Iqtisodiyot, Huquqshunoslik

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O‘zFA akademigi	**A. A. ABULQOSIMOV**	- geogr.f.d., professor
T. M. MO‘MINOV	- O‘zFA akademigi	**J. D. ELTAZAROV**	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi	**D. I. SALOHIY**	- fil.f.d., professor
S.N. LAKAYEV	- O‘zFA akademigi	**S. A. KARIMOV**	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O‘zFA akademigi	**T. SH. SHIRINOV**	- tar.f.d., professor
S. S. G’ULOMOV	- O‘zFA akademigi	**M.D.DJURAKULOV**	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	**I. M. SAIDOV**	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor	**B. O. TO‘RAYEV**	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	**O.M. G‘AYBULLAYEV**	- fals.f.d., professor
B. X. XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	**J.YA.YAXSHILIKOV**	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f .d., professor	**M. Q. QURONOV**	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	**X. I. IBRAGIMOV**	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	**N. SH. SHODIYEV**	- ped.f.d., professor
J. X. XO‘JAYEV	- b.f.d., professor	**E. G‘. G‘OZIYEV**	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	**SH. R. BARATOV**	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	**B. Q. QODIROV**	- psixol.f.d., professor
S. B. ABBOSOV	- geogr.f.d., professor	**R. A. SEYTMURATOV**	- i.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	**B. X. TO‘RAYEV**	- i.f.d., professor

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

TARIX/HISTORY		
Акбарова С.М.	Моделирование и системный анализ значения эпохи и роли Амира Темура и Темуридов в истории Республики Узбекистан и мировой истории	4
Djurakulova D.M.	Samaraqand makonining madaniy-davriy xususiyatlariga doir mulohazalar	13
Umarov U.A.	Zarafshon vodiysi Sazog‘on madaniyati yodgorliklarining o‘rganilish tarixi	17
Шарапов Ш.Ш. Бегматов М.	Перспективные шаги профсоюза Узбекистана	21
Азизов И.	О некоторых аспектах взаимодействия Республики Узбекистан с Организацией по Безопасности и Сотрудничеству в Европе в деле содействия защите законных прав и интересов человека	24
Polvonov K.N.	Qashqadaryo viloyati shaharlarida sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli (XX asrning 70-80 yillari)	30
FALSAFA/PHILOSOPHY		
Qabulov Q.P.	Xalqaro munosabatlarda milliy va umuminsoniy manfaatlarni uyg‘unlashtirishning potensial imkoniyatlari	35
Abdivohidov S.A.	Jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitratning “Oila” asarida oila tarbiyasi g‘oyasining vatan va xalq taqdiri bilan o‘zaro bog‘liqligi	38
Бахриева Д.Х.	Идейные предпосылки творчества Абдурахмана Джами	43
FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
Raximov A.A.	Inson kognitiv-diskursiv faoliyati va birlamchi nom munosabati haqida	46
Ashurova Z.	Anvar Obidjon she’rlari lingvopoetikasi	50
Davronova M.	Poetik uslub jilolari	53
Mo‘minova D.	Noma va uning janriy xususiyatlari	58
Khushmurodova Sh.Sh.	Translation problems of some English expressions into Uzbek in intercultural communication	61
Rasulova N.A.	Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar tarkibidagi tovush va so‘zlardagi ohangdorlik va effonik qofiyadoshlik	63
Turniyazova Sh.N.	Kirish so‘zlar matn derivatsiyasida leksik vosita sifatida	68
Ашурова Ш.А.	Литературная анималистика Европы XIX-ого и XX века	72
Рузиева С.А.	Семейные отношения в картине мира английской, русской и узбекской лингвокультуры	74
Мавлонова Н.А.	Идентификация межъязыковыхфразеологических соответствий	77
Muhiddinova B.	Vasliy Samarqandiyning «Armug‘oni do‘ston» asarida axloqiy, ma’rifiy g‘oyalar talqini	80
Атаева Г.М. Умарова О.С.	Эмоциональные междометные фразеологические единицы в тексте	84
Атаева Г.М. Уразкулова А.А.	Стилистико-функциональная разновидность междометной фразеологии в толковых словарях	86
Siddiqova Sh.I.	O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar semantikasi	88
Sulaymonov M.	Hofiz Xorazmiy lirikasida qo‘llangan ayrim she’riy san’atlar	90
Марупова Д.Д., Вохидова Н.А.	Изображение русского национального характера в произведениях В.М. Шукшина	94
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Davronova G.	Musiqa va san’at maktablarida o‘quvchilar musiqiy idrokini rivojlantirish yo‘llari	97

Avliyakulov N.X. **Musayeva N.N.**	Imom Buxoriy ta'limotida uzluksiz ta'lim g'oyasining irmoqlari	101
Hamroyeva F.	Mediatexnologiyaning ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashning nazariy asoslari	104
Пиримкулова С.Ш.	Игры на уроках немецкого языка	106
Ибатова А.Ш.	Игры и методы в преподавании иностранного языка	110
Barakayev B.O'. **Qosimov F.J.**	Kurash mashg'ulotlari jarayonida talaba-yoshlarning ma'naviy va jismoniy barkamolligini tarbiyalash	114
Mirsoliyeva M.T.	Pedagogika nazariyasi va tarixi. ta`limda menejment kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda akmeologiya masalalari	116
Умаров С. **Қодиров Т.**	Развитие культурологических знаний студентов при изучении английского языка	119
Azizova G.G.	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	123
Ахмедова Ш.Б.	Социально-психологическая адаптация учащихся в образовательной среде	127
Umarov K.M. **Muradova N.**	Qo'l to'pi o'yiniga tayyorgarlik vositalarini aniqlash yo'llari	130
O'roqov Sh.R.	Bo'lajak kollej o'qituvchisining kasbiy faoliyatini modellashtirish	134
To'xtayeva Z.Sh.	Oliy ta'lim bosqichlarida fanlar integratsiyasi va uzviyligini amalga oshirishning nazariy asoslari	139
Shamuratova E.S.	Oilada diniy qadriyatlarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	143
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
Shonazarov A.M.	Umumta'lim tizimi rahbarlarining psixologik kasbiy kompetentli yondashuvini shakllantirish	146
Карамян М.Х.	Мотивационно-поведенческий компонент ценностного отношения личности к здоровью	153
Нарзикулова Ф.Б.	Практика суфизма и психология Ибн Сино	158
IQTISODIYOT/ECONOMICS		
Гулямов С.С.	Инновационное развитие Узбекистана: проблемы и пути их решения	165
Boboqulov B.M. **Djumayev A.X.** **Islomov Z.Ch.**	Ijtimoiy sherikchilik – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning omili sifatida	168
Muhammedov M.M. **Jalilov Sh.Z.** **Omonov Sh.B.**	Iqtisodiyotda eksport salohiyatini rivojlantirishda investitsiyalarning tutgan o'rni	172
Turayev B.X. **Sultonov S.**	Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilish orqali xizmat sifatinioshirishning asosiy yo'nalishlari	177
Nasimov D.A. **Tolibova D.** **Rabbimov M.**	O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari tahlili	182
HUQUQSHUNOSLIK/LAW		
Mirzayev R.I.	Qonun loyihalari ekspertizasida terminlarning o'rni	191
MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS		194

Ichki ruhiy kechinma o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida dostonlarda turli nutq obyektlarini tasvirlashda, ularni baholashda ham o‘z aksini topadi. Yuqoridagi parchada Boybo‘ribiy ma’lum bir jamiyat vakili sifatida xulosa chiqarishda bir tomondan o‘z hayotiy tajribalariga, qavm-qarindoshlik rishtalariga, ikkinchi tomondan esa o‘zi mansub bo‘lgan jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan qoida va mezonlarga tayanadi.Uning bunday xulosaga kelishida Boysarining unga uka ekanligi, zakot berishning hamma uchun umumiyligi asos bo‘lgan. Mana shunday holatda qahramon ichki kechinmalarini ko‘chirma gap yoki o‘zlashtirma gap shaklida ifodalash asarning badiiy estetik imkoniyatlarini cheklaydi.Shuning uchun aytuvchi o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarga murojaat qilgan va ifodalanayotgan fikrlar ta’sirchanligini kuchaytirishga erishgan.Qahramon ruhiy holati va uning bu masalaga munosabati qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bu bevosita uning milliy-ma’naviy dunyoqarashi bilan bog‘liq.

Dostonda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida qisqa muddatli, oniy lahzalarni aks ettiruvchi situativ kechinmalar tasvirlari ham uchraydi. Alpomishning Qalmoqlar yurtiga borayotib tunash uchun joy izlayotgandagi holati quyidagicha ifodalanadi:

Borsa, bir ko‘hna mozorot ekan. Bu chiltanlarning bir mazgilgoh joyi edi. Hakimbek chiltanning mazgilgoh joyi ekanini bilmadi. «Kech qolgan odam mozorotda yotadi, degich edi. Shul mozorotda yotsammikan, yo shu erdan ketsammikan?! Behuda odami yo‘q mozorotda yotishligim qanday bo‘ladi ekan, behuda yotsam, bu o‘liklarning men bilan ishi bo‘lmasa, mehmon keldi, deb mendan xabar olmasa. Shu yorug‘ chiqib turgan erga bir savol qilayin. Men bo‘larga uzimni bildirayin», — deb savol qilib turgan ekan: 90 b.

Keltirilgan parchadan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida Alpomishning maqsadi, nutqiy vaziyat, nutq qaratilgan shaxs-Boybo‘riga bo‘lgan munosabati, uni baholashi o‘z aksini topgan.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning dostonlar tilida qo‘llanishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap dostonlar tilida bir necha vazifa bajaradi. Birinchidan, ma’lumot berish vazifasini bajaradi.Ikkinchidan, qahramonning ichki kechinmalari tasviri beriladi. Uchinchidan, personajning modal munosabati ifodalanadi.To‘rtinchidan, so‘zlovchining nutq ob’ektini baholashi aks etadi. Qayd etilgan bu holatlar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning dostonlar tilida muhim lingvostilistik vosita ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Андриевская А. А. Несобственно-прямая речь в художественной прозе Луи Арагона. - Киев: Изд-во Киев, ун-та, 1967. - С.23.
2. Падучева Е.В. Семантические исследования (Семантика времени и вида в русском языке; Семантика нарратива). - М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. - С.258.
3. Падучева Е.В. Семантические исследования (Семантика времени и вида в русском языке; Семантика нарратива). - М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. - С.279.
4. Галкина- Федорук Е.М. Современный русский язык. - М., 1952. - С.408-409.
5. Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. - М., 2004. - С.434.
6. Йўлдошев Б., Исроилов О. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапнинг грамматик-стилистик хусусиятлари ва бадиий текстдаги ўрни. - Самарқанд,1991. -Б.35-36.

UDK. 891.709

HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QO‘LLANGAN AYRIM SHE’RIY SAN’ATLAR

M. Sulaymonov

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Hofiz Xorazmiy ijodida she’riy san’atlarning qo‘llanilishi tanlanma misollar orqali tahlil etilgan, shoirning she’riy san’atlarga bo‘lgan munosabati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Hofiz Xorazmiy, she’riy san’atlar, tashbeh, tazod, lutf, iyhom, talmeh, husni ta’lil, istiora, mubolag‘a, laf va nashr, tamsil, ittifoq, tajohilu orif, mutoqiba, ruju’.

Использование некоторых поэтических искусств в лирике Хофиза Хоразмий

Аннотация. в статье с помощью выборочных примеров анализировано применение поэтического искусства в творчестве Хофиза Хоразмий освещенная поэта к поэтическому искусству.

Ключевые слова: Хофиз Хоразмий, поэтические искусства, ташбех, тазод, лутф, ийхом, талмех, хусни таьлил, истиора, лаф и нашр, тамсил, иттифок, тажохилу ориф, мутокиба, ружу.

Some lyric arts used in poetry of Khofiz Khorazmiy

Abstract. this article deals with analysis of usage of lyric arts in Khofiz Khorazmiy's poetry by selected examples and poet's attitude for lyric arts.

Keywords: Khofiz Khorazmiy, lyric arts, tashbeh, tazod, lutf, iykhom, talmeh, khusni ta'lil, istiora, mubolag'a, laf and nashr, tamsil, ittifok, tajokhilu orif, mutokiba, ruju'.

Shoirlarning mahorati badiiy san'atlardan qanday foydalana olganligida ham namoyon bo'ldi. Shu sababli bularni o'rganish, tahlil qilish, qo'llanish usullarini yoritish adabiyotshunoslarining ham diqqatini tortgan. O'tmish adabiyotshunosligida "Ilmi bade'" nomli alohida soha bo'lib, unda she'riy san'atlar haqida bahs yuritilgan. Ayniqsa, XV asrda Navoiy ning zamondoshi Mir Atoulloh Husayniyning "Badoye'us-sanoye'" (Badiiy san'atlar) [1] asari juda mashhur edi.

Hozir mumtoz adabiyotni o'rganishga qiziqishning ortishi bilan birga badiiy san'atlarni tadqiq etishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, badiiy san'atlarni puxta bilmay turib, she'riyat sehrini tushunish amri mahol.

Atoqli shoir, mashhur adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda "G'azal mulkining sultoni"[7], akademik Alibek Rustamov "Navoiyning badiiy mahorati"[6], Yoqubjon Is'hoqovning "Navoiy poetikasi"[2] va "Klassik adabiyot poetikasidan ma'lumotlar"[3] nomli turkum maqolalarida o'tmishdagi o'zbek shoirlarining badiiy mahorati zukkolik bilan tekshirilgan. Adabiyotshunos Vahob Rahmonov o'zining "She'r san'atlari"[5] nomli qo'llanmasida poetik san'atlarning nazariy va amaliy jihatlarini namunalar asosida bayon qilgan.

Zamonasining g'azalxoni Hofiz Xorazmiy ijodida ham o'nlab she'riy san'atlari qo'llangan bo'lib, bu shoirning mahorati va zo'r iste'dodidan darak beradi.

Hofiz Xorazmiy lirikasida tashbeh, tazod, lutf, iyhom, talmeh, husni ta'lil, istiora, mubolag'a, laf va nashr, tamsil, ittifoq, tajohilu orif, mutoqiba, ruju' kabi ma'naviy san'atlardan o'rinli foydalangan.

She'r san'atlari orasida eng ko'p qo'llanadigan turi tashbehdir[4]. Hofiz Xorazmiy ijodida ham tashbeh qo'llanmagan biror she'rni uchratish qiyin. Shoir yuzlab an'anaviy tashbehlardan unumli foydalanadi, o'zi ham yangi ohorli tashbehlar yaratadi. Quyidagi baytda san'atkor yorni husn bo'stonidagi shoxchaga qiyoslab, chiroyli tashbeh yaratadi va ana shu shoxchadan murod bargi hosil bo'ladi, deb hijron kayfiyatini ta'sirli bayon qiladi.

Husn bo'stonida bir shoxchadur yor, vale
Topmadim bargi murod guli bo'stonimdin. [D;432]

Shoir quyidagi baytda ko'zimning qorachig'i ma'shuqa ko'chasiga suv sepib, kipriklarim supurib, yor eshigida xizmat qiladgan saqqo va farroshni uyatga qo'yadi, deydi. Oshiqning sadoqati va dard-alami mubolag'a bilan ifodalanadiki, kipriklar supuruvchi, ko'zlar suv sepuvchi bo'ladi.

Eshiginda kirpukim birla ko'zumning mardumi,
Ayladi sharmanda bas saqqovu ham farroshni. [D;503]

Shoir o'zbek xalq og'zaki ijodida keng qo'llanadigan **"Bod kelib farroshlikdan berdi nishon, abr kelib saqqolikni etti ayon"** iborasini g'oyatda ustalik bilan bayt mazmuniga singdirib yuborgan.

Shoir yorning yuzini oy va quyoshga qiyoslash an'anasidan foydalanib, oy
bilan quyosh yorning yuzini ko'rish uchun ertalab va kechqurun eshigiga yakson tushadi, ya'ni botadi. Ana shu paytda har ikkisi ham mo'ralaganday bo'ladi, deb original tashbeh qo'llaydi.

Kunduzu oxshom yuzung ko'rmak uchun oyu quyosh,
Eshigingga xoki rohtek ikisi yakson tushar. [D;4211]

Xalqimizda "saragini sarakka, puchagini puchakka ajratmoq" iborasi bor. Shoir quyidagi baytda ana shu iboraga ishora qiladi, yana original tashbeh ham ishlatadi. Baytda tazod san'atidan ham

foydalanganligini (yomon-yaxshi, bug‘doy-somon) e’tiborga olsak, shoir mahorati yanada yorqinroq ko‘rinadi.

Man yomonu o‘zgalar yaxshi sulton qoshida,
Xirmani umr ichra bo‘ldi barcha bug‘doy, biz somon.[D;439]

Hofiz Xorazmiy ko‘plab an’anaviy tashbehlarni san’atkorona qo‘llab, alohida g‘azallar, baytlar mazmuni, badiiy qudratining yanada barkamol, ta’sirchan bo‘lishiga erishgan.

Shoir tazod san’atidan ham mohirona foydalanib, chiroyli baytlar yaratganligini ko‘ramiz.

*Ko‘zlari mastona **uyquda**, vale,*
*Doim aning fitnasi **bedor** erur.* [D;160]

Yorning ko‘zlari shunchalar fitnagarki, hatto uxlayotgan, ya’ni yumuq holida ham oshiqni beqaror qiladi.

Manga gar iltifot etmasang, ey sulton, g‘arib ermas,
Saning yuz ming qulung boru manim yo‘q o‘zga sultonim.[D;375]

Shoir zid tushunchalarni ustalik bilan qo‘llab, mazmundor baytlar yaratgan. Quyidagi misolda har ikki misrada ham tazod san’ati qo‘llangan bo‘lib, bu qarama-qarshi tushunchalar baytda ham tazod hosil qiladi. Ya’ni javr-vafo, shifoyi jon-xasta, jafovu javr-shifoyi jon.

Jafovu javr qilur yoru bir vafosi yo‘q,
Shifoyi jonduru man xastaga davosi yo‘q. [D;317]

Hofiz Xorazmiy tazod san’atidan faqat g‘azallardagina emas, boshqa janrda yaratgan she’rlarida ham unumli foydalangan.

Hofiz Xorazmiy ijodida lutf san’ti qo‘llangan she’rlar ham juda ko‘p. Shoir **“kosa tagida nim kosa”** qabilida misraning botiniy ma’nosini nazarda tutib, yaratgan lutflaridan tashqari, bu san’atning kuy, qo‘shiq, shahar, mamlakatlar nomidan hosil qilingan turi ko‘plab uchraydi.

Ko‘zlaring qoshinda savmagil bu mushkin xolni,
***Turk dashti** bor ekan mayli **Hindu** qilmag‘il.* [D;332]

Kitobxon baytdan Turk dashtini tashlab, Hindistonga ketmagin degan ma’noni tushunadi. Baytdagi yashirin ma’no Turk dashti - yorning ko‘zi, Hind esa qora xoli ekanligi lutfdir. Ayrim baytlarda kuy nomlaridan lutf yaratilganligini ko‘ramiz:

Iroq yonina qilg‘ali bas nigor ohang,
Muhiblaring bori rohi Hijoz o‘grandi.[D;487]

Ma’lumki, Iroq, Hijoz mamlakatlarning nomi. Yana yuqorida ta’kidlaganimizdek, shu nomda kuylar ham mavjud bo‘lib, baytdan har ikki ma’noni uqish mumkin.

Quyidagi baytda harf lutfi, ya’ni kitobat san’ati qo‘llangan bo‘lib, shoir Yaman va yomon so‘zlarining yozilishidan foydalanib, lutf yaratadi.

Aqiq o‘xshatmoqi mushkka o‘zin,
Ko‘runmayin yaxshi, chun asli Yaman (yomon)dur.[D;138]

Mana bu lutfda esa shoir «boshiga yetdi» degan xalq borasidan g‘oyatda ustalik bilan foydalangan.

Eshigingniki mundog‘ yastanibman,
Boshimga oqibat yetgay adoqing. [D;323]

Aksariyat she’rlarida shoir iyhom san’atidan ham o‘rinli va unumli foydalangan.

Muddayi hyech ko‘ra bilmadi Hofiz so‘zini,
Tong emas ko‘rmasa xurshid yuzini xaffosh.[D;298]

Baytni o‘qigan odam, tong otsa, xaffosh - ko‘rshapalak quyoshni ko‘ra olmaydi, deb tushunadi. Lekin tong so‘zini ajablanish ma’nosi ham borki, ko‘rshapalak, ya’ni raqib, xurshid - oshiqni ko‘ra olmasa, ajablanishga o‘rin yo‘q, degan ma’no ham mavjud. Baytda ifodalangan ana shu botiniy ma’no iyhomdir.

Quyidagi baytda “kechadur” so‘zining tun, kecha va kechmoq, o‘tmoq ma’nolariga e’tiborni qaratilsa, iyhom hosil bo‘ladi.

Dudi ohimdin hazar qilsun, o‘shul zebo nigor,
*Kim **kechadur** kechalar zoriyu ham yo rab bila.*[D;67]

Hofiz Xorazmiy she’rlarida talmeh san’atidan ham g‘oyat ustalik bilan foydalanganligini ko‘ramiz. Shoir bir qancha an’anaviy talmehlardan foydalanishi bilan birga o‘ziga xos talmehlar ham yaratgan. Masalan, «Xusrav va Shirin» dostonidagi qahramonlar nomidan:

Shakkari la’li labining sifatin qilmoqda,

Bo‘lmadim Hofiz, man Xusravi shirin bo‘ldum. [D;364]

Husni ta’lil she’rdagi nafis o‘xshatish bo‘lib, shoir bu san’atdan ham ko‘p foydalangan. Quyidagi baytda ma’shuqaning qaddi-qomatini (alif), qoshini (be) harfiga o‘shatib, uni «Alifbo» deb ataydi. O‘zini ana shu «Alifbo»ni o‘qiyotgan bola - tiflga qiyoslab, husni ta’lil yaratadi.

Ko‘rgali ravon qadi bila qoshini Hofiz,
Ul tiflg‘a o‘xsharkim, o‘qur doim ***alifbo***.[D;556]

Sharq she’riyatida yor jamolini alifbo harflariga qiyoslash, ya’ni kitobat san’ati mavjud bo‘lib, bu baytda shoir lo‘nda qilib yorni alifbo degan bo‘lsa ham nuqta va mimga o‘xshash OG‘ZI, jimga o‘xshash gajaklari va boshqa a’zolarini tushunish mumkin.

Shoir quyidagi baytda ma’shuqani ko‘cha eshigi oldida o‘ynayotgan qizchaga qiyos qilib, husni ta’lil yaratgan. Oshiq yorni ko‘rishga mushtoq, u esa oshiqni kuydirish maqsadida eshigi oldiga chiqib, yosh bolalardek o‘ynaydi.

Jon o‘ynoqing oshiqqa chu ko‘rguzur o‘shul dam
Kim, jon biki dilbar chiqib uynar eshiginda. [D;93]

Quyidagi baytda oshiq nigohim begonaga tushmasin, deb ko‘zlarimga kipriklarimdan xor-to‘siq yasadim, deyish bilan husni ta’lil yaratiladi. Odatda yor kipriklari kamon qoshlaridan otiladigan tir-o‘qqa qiyos qilinar edi. U o‘q oshiq qalbini yaralaydi. Bu baytda esa tamoman aksi bo‘lib, oshiqning kipriklari vafodorlik uchun xizmat qilayapti.

Ul gulruxsordin o‘zgaga tushmasun teyu,
Ko‘zlarimga bog‘ladim kirpuklarimdin xorni.[D;496]

Hofiz Xorazmiyga xos bunday husni ta’lillar shoirga zamondosh ijodkorlarida uchramaydi.

Shoir she’rlarida fikrni bo‘rttirib, favquloddaholatda ko‘rsatish maqsadida mubolag‘a san’atining turli-tuman ko‘rinishlarini ishlatgan.

Quyidagi misralarda go‘zalning ko‘zi ham mubolag‘a bilan davronning fitnachisiga aylanadi. Shoir davronda boshqa bunday fitna soluvchi yo‘q deb bo‘rttiradi.

Ko‘zlaring davrinda yuz ming fitna bor,
Ko‘zlaringtak fitnai davron qani?[D;495]

Yor labini uylab, oshiq ko‘zidan oqqan yosh emas, balki qondur. Bu qon qirg‘oqlariga to‘lib oqayotgan Jayhun-Amudaryo singaridir.

Dam-badam la’li xayoli birla ko‘zdin qon oqar,
Andayinkim suvdin oqsa to‘lu Jayhun lab bila. [D;67]

Quyidagi baytda jon tanadan tashqarida yashaydi degan rivoyatga ishora qilib, yorni - jon, o‘zini tanaga qiyoslaydi.

Ne ajab bo‘lg‘ay bora bilmay kelurin izdasam,
Jong‘a tan bormadiyu jon keldi chun tan yonina. [D;63]

She’r san’atlari orasida qiyin va murakkb turi bo‘lgan laf va nashrning Hofiz Xorazmiy eng yaxshi, original namunalarini yaratgan.

Ko‘zlarim yoshi yuzi uzra yarashgay andoq
Kim, guli lola uza qatrayi boron tushkay. [D;454]

Yuqoridagi bayt butunlay original bo‘lib, bu visol ayyomi bilan bog‘liqdir. Ya’ni visolga yetishgan oshiq ko‘zlaridan yoshlar oqadi, bu gul - lolaga to‘kilayotgan yomg‘ir tomchisiga o‘xshaydi.

Shoir tamsil va irsoli masal san’atlaridan ham unumli foydalangan, chiroyli fikrlar aytishga harakat qilgan. Masalan quyidagi baytdan **«Orzuga ayb yo‘q«** maqoli shoir zamonida ham aynan hozirgidek qo‘llanilganini bilib olamiz.

Bu masal mashhur erurkim, ***«Orzuga ayb yo‘q«****.*
Ne ajab sandin tama’ tutsam biror bo‘si kanor.[D;241]

«Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi» maqoli ishqqa bog‘lanadiki, asli bu odamzod xulqi atvori bilan bog‘liq holda ishlatilar edi. Shoir yor ishqi menga sut bilan kirgan deydi.

Ko‘nguldin bir nafas chiqmadi dardi,
Magarkim ***ichmisham ishqi bila shir.***[D;246]

Bir g‘azaldan olingan quyidagi ikki baytda ham maqol keltirilgan. Birinchi baytda, **«Osmonga tosh otsang, boshinga tushadi»** yoki **«Osmonga tupursang, yuzingga tushadi»** maqoli, ikkinchi baytda **«Oshga chivin-pashsha tushsa, ko‘ngilni ozdiradi»** maqoli keltiriladi.

Bu oshiqlarg‘a rahm aylab kel, ey jon, ezgulik qilkim,

Ne turli tosh tashlasang tushar ul oqibat boshg‘a.
Ziyon qilmas raqiblarning yurumaki sening birla,
Valekin ***ko‘ngul ozdurur chibin tushar esa oshg‘a.***[D;74]

Mazkur baytlarning bir g‘azaldan olingani xarakterlidir. Bu o‘rinda Mavlono Lutfiyning irsolu masal san’ati asosida yaratgan g‘azalini eslash kifoya.

Xulosa qilib aytganda, Hofiz Xorazmiy o‘z she’rlarida mumtoz adabiyotimizda qo‘llangan o‘nlab badiiy san’atlardan unumli va o‘rinli foydalangan holda ijodkorlik mahoratini namoyon qila olgan. Uning badiiy jihatdan barkamol asarlari Alisher Navoiyga qadar bo‘lgan o‘zbek mumtoz adabiyotining darajasini belgilashda salmoqli meros sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъус-саноеъ. А. Рустамов.тар. -Т., 1981.
2. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Т., 1983.
3. Исҳоқов Ё. Классик адабиёт поэтикасидан маълумотлар. Ўзбек тили ва адабиёти. // 1970. N 1- 3, N 4, N 5, N 6. 1971. N 1, N 3, N 4, N 6. 1972. N 1, N 2, N 4. 1973. N 3.
4. Исҳоқов Ё. Ташбеҳ. Ўзбек тили ва адабиёти. 1970.N 4,81 85-6.
5. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. -Ленинобод, 1972.
6. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Т., 1979.
7. Шайхзода М. Сайланма. IV том. -Т., 1972.

УДК:891.709

ИЗОБРАЖЕНИЕ РУССКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ В.М. ШУКШИНА

Д.Д. Марупова, Н.А. Вохидова
Академический лицей Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье раскрыты образы героев рассказов В.М.Шукшина, через которые передается своеобразие национального характера русского человека, вышедшего из села, у которого не утрачена связь с истоками. Выбраны рассказы о чудаковатых героях Шукшина, попавших в разные жизненные ситуации, но при этом, не потерявших свою самобытность и искренность.

Ключевые слова: национальный характер, судьба народа, сельские жители, малая родина, проза, традиции, обычаи.

V.M. Shukshin asarlarida rus milliy xarakterining aks ettirilishi

Ushbu maqolada rus yozuvchisi V.M.Shukshinning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlaridagi haqiaiy rus xarakterining o’ziga xos jihatlari yoritib berilgan. V.Shukshin qahramonlarining har xil hayotiy sharoitlarga tushib qolishiga qaramay, ularning kichik vataniga bo’lgan muhabbati, samimiyligi, sof insoniy xislatlari aks ettirilgan.

Kalitso’zlar: milliy xarakter, xalq taqdiri, qishloq ahli, kichik vatan, proza, an'ana, urf-odat.

Image of the Russian national character in the works of V.M. Shukshin

Abstract. In this article, images of the heroes of V. Shukshin's stories are revealed, through which the originality of the national character of a Russian man from village is transmitted. Stories about eccentric heroes of Shukshin are selected, who fell into different life situations, but at the same time, did not lose their identity and sincerity.

Keywords: national character, the destiny of the people, the villagers, the small homeland, prose, traditions, customs.

Василий Макарович Шукшин – талантливейший русский писатель. Им были созданы самобытные рассказы, повести, исторические романы, кинофильмы; им было сыграно множество актёрских ролей. Рассказы В. М.Шукшина поражают своей неповторимостью,

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiya, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib	**X.Sh.Tashpulatov**
Musahhih	**M.M. Ro‘ziboyev**
Texnik muharrir	**S. D. Aronbayev**

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G’oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 10.05.2018 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 60. Adadi 500 nusxa.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.